

Davlat organlari va tashkilotlarining davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risida

# GUVOHNOMA



## "BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI " DAVLAT MUASSASASI

Davlat organlari va tashkilotlarining nomi

**201 504 275**

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatga olish, axborotni o'zgartirish)

**19.06.1996**

Sana

**1435**

Tasdiqlandi

Tashkiliy-huquqiy shakli:

**DAVLAT MUASSASASI**

Tomonidan berilgan:

**BUXORO SHAHRI DAVLAT XIZMATLARI MARKAZI**

1553024



Турсор мактор агима 8 унам  
Давлат хизмати тартиб кераки  
тозисига 05.12.2023 -  
индо 2328010-регистр  
регистр булак рујноти  
онек 2024

O'zbekiston Respublikasi Oly ta'lif,  
fan va innovatsiyalar vazirining

2023-yil 8-nevabridagi

493-sonli buyruq i bilan

"TASDIQLANGAN"



# Buxoro davlat universitetining USTAVI

## BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI USTAVI

### 1.Umumiy qoidalar

**1.** Buxoro davlat universiteti (keyingi matnlarda “universitet” deb yuritiladi). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 28-fevraldagи PF-356-soni Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 11-martdagи 125-sonli Qaroriga asosan Buxoro davlat pedagogika instituti negizida tashkil etigan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.12.2021-yildagi PQ-60-son va PQ-61-soni Qarorlari bilan akademik va tashkiliy-boshqaruv va moliyaviy mustaqillik berilgan.

**2.** Universitet davlat oliy ta’lim muassasasi hisoblanib, oliy ta’limning asosiy va qo’shma ta’lim dasturlarini bajarish bo‘yicha ta’lim faoliyatini bilan shug‘ullanadi. Shuningdek O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq o‘quv, ilmiy-metodik va boshqa faoliyatlarni amalga oshiradi hamda ta’lim xizmatlarini ko‘rsatadi.

**3.** Universitet o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim tog‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining buyruqlari hamda mazkur Ustavga amal qiladi.

**4.** Universitet bakalaviriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisligi bo‘yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlashni ta’minlaydi. Shuningdek, universitet shartnoma asosida ikkinchi va undan keyingi oliy ma’lumotni olishni tashkil etadi.

**5.** Universitetda ta’lim olish shakllari quyidagilardan iborat:

Ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta’lim olish (kunduzgi);

Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta’lim olish (sirtqi, kechki).

Qonunchilik hujjatlariga muvofiq universitetda ta’lim olishning boshqa shakllari ham ham joriy etilishi mumkin.

**6.** Universitet yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan budget mablag‘larini oluvchi davlat tashkiloti hisoblanadi. Operativ boshqaruvida o‘ziga xos maxsus mol-mulk ega va ushbu mol-mulk bo‘yicha o‘z majburiyatlariga muvofiq javob beradi, o‘z nomidan mol-mulk sotib olishi va mulkiy hamda nomulkiy huquqlarni amalga oshirishi, zimmasiga majburiyat olishi, shuningdek, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

Universitet mustaqil balansga, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi G‘aznachiligi yoki uning boshqarmalarida shaxsiy g‘azna hisob varaqalariga, shu jumladan, bank muassasalarida valyuta bo‘yicha hisob raqamlariga, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tushurilgan va o‘z nomi yozilgan muhrga, shtamplar va boshqa rekvizitsiyalarga ega.

Universitetning rasmiy nomi:

**Davlat tilida:** Buxoro davlat universiteti (BuxDU);

**Rus tilida:** Бухарский государственный университет (БухГУ)

**Ingliz tilida:** Bukhara State University (BukhSU)

Universitet Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uyda joylashgan. (pochta indeksi – 200117) . +998652212914, faks 998652212707, elektron manzil: [bsu\\_info@edu.uz](mailto:bsu_info@edu.uz), [www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz).

7. Universitet o‘z faoliyatini davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyat organlari, kadrlar buyurtmachilari va boshqa tashkilotlar, shu jumladan, xorijiy hamkor tashkilotlar bilan o‘zaro hamlorlikda amalga oshiriladi.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining hujjatlarida nazarda tutilgan hollardan tashqari, universitet xo‘jalik jamiyatini ta’sis etishi hamda ularning ustav fondi (ustav kapitali)da ishtirok etishi mumkin emas.

## **II. Universitetning asosiy maqsadi, vazifalari va funksiyalari**

9. Har tomonlama rivojlangan, vatanni qadrlovchi, davlat va jamiyat oldidagi o‘z ma’suliyatini his qiluvchi, mamlakat kelajagi uchun vijdonan va halol mehnat qilivchi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qiluvchi, qonunlarga so‘zsiz itoat etuvchi hamda xalqaro ta’lim maydonida raqobatbardosh, yuqori malakali, zamonaviy iqtisodiyotning tegishli sohalari bo‘yicha oliy ma'lumotli mutaxassislarni va ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlash Universitetning asosiy maqsadi hisoblanadi.

10. Asosiy maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagilar Universitetning asosiy maqsadi hisoblanadi:

- zamonaviy talablar, ilg‘or xalqaro tajriba va mehnat bozori ehtiyojlari asosiy yuqori malakali, ijodiy fikrlaydigan, halol kadrlarni tayyorlash;

- iqtisodiyotning tegishli sohalari bo‘yicha talabalarning fundamental, bazaviy, shuningdek, amaliy kasbiy tayyorgarligini ta‘minlaydigan o‘quv reja va dasturlar asosida bakalavrlar, magistrlar tayyorlash;

- ish beruvchi ehtiyojidan kelib chiqib, talabalardan tahliliy fikrlash va kasbiy ko‘nikmalar rivojlantirish, yangi bilimlarni mustaqil ravishda egallash va ulardan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirishni ta‘minlaydigan o‘qitishning zamonaviy shakl va metodlari, pedagogik innovatsion, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo‘llash;

- fanlarni tanlash imkoniyatini ta‘minlagan holda yevropa kredit tizimini (European Credit Transfer and Accumulation System) joriy etish, shu jumladan talabalar o‘quv yuklamasi hajmini aniqlashning xalqaro shartli birliklarini (kreditlar) o‘tkazish va jamlash tizimini qo‘llagan holda o‘quv jarayonini tashkil etish;

- universitetning professor - o‘qituvchilari tarkibini yuqori darajada kasbiy pedagogik mahoratga, huquqiy va siyosiy madaniyatga ega mutaxassislar bilan mustahkamlash;

- rivojlangan xorijiy davlatlarning yetakchi ta’lim va ilmiy muasssalari bilan hamkorlikni, qo‘shma huquqiy tadqiqotlarni, professor-o‘qituvchilar va talabalar o‘zaro almashinuvini takomillashtirish;

– davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, iqtisodiyotning tegishli sohalari hamda boshqa tashkilotlarda amaliy ish tajribasiga ega bo‘lgan mutaxassislarini ta’lim jarayoniga keng jalg etish, ularning malakasini oshirishda samarali tizimni yaratish, xorijiy mamlakatlarning yetakchi ta’lim, tadqiqot muassasalarining yuqori malakali mutaxassislarini o‘quv, ilmiy-metodik ishlarni tashkil etish jarayonlariga jalg qilish;

– tegishli ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv majmualarini, qo‘llanmalarni yaratish va ularni o‘quv jarayonlariga tatbiq qilish;

– xorijiy hamkorlar bilan birgalikda kadrlarni tayyorlash bo‘yicha qo‘shma ta’lim dasturlarini (double degree) amalga oshirish, o‘quv-ta’lim jarayoniga xorijiy olimlarni va mutaxassislarini jalg qilish;

– milliy iqtisodiyotning tegishli tarmoqlari bo‘yicha ustuvorlikka ega bo‘lgan va ishlab chiqarish ehtiyojidan kelib chiqqan holda ilmiy-tadqiqot ishlarni olib borish va natijalarini amaliyatga tatbiq qilish;

– ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlarni amalga oshirish va bu ishlarga talabalarini jalg etish;

– “HEMIS” platformasini yoki oliy ta’lim tizimini avtomatik boshqarishga qaratilgan boshqa tizimlarni joriy etgan holda ochiq, shaffof, subyektivlik va suiiste’molchilikdan xoli bo‘lgan ta’lim muhitini yaratish;

– talabalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash, huquqiy, siyosiy madaniyatini va huquqiy ongini oshirish bo‘yicha samarali tizimni yaratish ularda vatanparvarlik, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni, korrupsiyaga murosasizlik tuyg‘usini shakllantirish hamda rivojlantirish.

**11.** Universitet o‘z vazifalarini amalga oshirish maqsadida quyidagi funksiyalarini amalga oshiradi:

– davlat ta’lim standartlari asosida mamlaktida o‘tkazilayotgan demokratik va huquqiy islohotlar, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va zamonaviy xalqaro standartlarning yuksak talabalariga javob beradigan, iqtisodiyotning tegishli sohalari bo‘yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlashni tashkil etadi;

– huquqiy va siyosiy madaniyatga, amaliy ish tajribasiga kasbiy va pedagogik mahoratga ega yuqori malalakali kadrlarni ta’lim jarayoniga keng jalg etish bo‘yicha choralarini ko‘radi, shuningdek, tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikni amalga oshiradi;

– o‘quv jarayonini ta’lim berishning kredit-modul tizimi va innovatsion o‘qitish usullarini qo‘llagan holda umume‘tirof etilgan xalqaro ta’lim standartlari va talabalariga muvofiq ishlab chiqilgan hamda talabalarda iqtisodiyotning tegishli sohalari bo‘yicha tizimli tahlil qilish qobiliyati va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan ta’lim dasturi asosida olib boradi;

– talabalarning mustaqil tayyorgarligini chuqurlashtirishni hisobga olgan holda ish beruvchilar ehtiyojidan kelib chiqib, tahliliy fikrlash va kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan, o‘quv reja va dasturlar hamda o‘quv-metodik materiallarni o‘quv jarayonida qo‘llaydi;

o‘quv jarayonida axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo‘llash, talabalar, o‘qituvchilar va yosh tadqiqotchilarni global axborot va ta‘lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi;

– professor o‘qituvchilar tarkibi mehnatni normallashtirishni faqat o‘quv tusdagi tadbirlarga asoslangan holda mustaqil amalga oshiradi hamda pedagogik xodimlar tomonidan ilmiy-metodik, ilmiy tadqiqot, tashkiliy-metodik, ma’naviy-axloqiy va tarbiyaviy ishlarning bajarilishni rag‘batlantiradi;

– universitet tomonidan o‘tkaziladigan tadqiqotlar natijalarini o‘quv rejalarini va ta‘lim dasturiga joriy etish uchun fanlarni o‘qitish sifati va darajasini oshirishga yo‘naltirilgan ilmiy va o‘quv-uslubiy materiallar ishlab chiqadi;

– tizimli asosda pedagogik va ilmiy xodimlar malakasini oshirish va stajirovkadan o‘tkazish, ilmiy tadqiqotlar olib borish, ta‘lim jarayoniga xorijiy mutaxassislarni jalb etish, shunungdek, talabalarning akademik almashinuvini ta‘minlash bo‘yicha yetakchi xorijiy ilmiy ta‘lim muassasalari, tahliliy, tadqiqot markazlari, xalqaro tashkilotlar bilan aloqani mustahkamlaydi;

– ijobiy xalqaro tajribani kengroq qo‘llash, shu jumladan, talabalar o‘quv yuklamasi hajmini aniqlashning shartli birliklari (kreditlar) ni o‘tkazish va jamlash tizimini qo‘llaydi;

– davlat va xo‘jalik boshqaruv organlari hamda boshqa tashkilotlar bilan birgalikda ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etadi, ularning samaradorligini oshirish va tadqiqotlarning natijalarini amaliyotga keng joriy etish orqali fan-ta‘lim-ishlab chiqarish integratsiyasini ta‘minlaydi;

– o‘qitishning kredit modul tizimini va talabalar bilimini baholash usullarini takomillashtirib, o‘quv jarayonida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo‘llaydi hamda o‘quv bazasini takomillashtirib boradi;

– rivojlangan xorijiy davlatlarning yetakchi ta‘lim va ilmiy muassasalari bilan hamkorlikni, qo‘shma huquqiy tadqiqotlarni, professor-o‘qituvchilar va talabalar o‘zaro almashinuvini doimiy amalga oshirib boradi;

– xorijiy hamkorlar bilan birgalikda kadrlarni tayyorlash bo‘yicha qo‘shma ta‘lim dasturlarini (double degree) mustaqil amalga oshiradi, o‘quv-ta‘lim jarayoniga xorijiy olimlar va mutaxassislarni faol jalb qiladi;

– falsafa doktori (Doctor of Philosophy) va fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajalarini olish uchun dissertatsiya ishlarini zamonaviy talablar, iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligini ta‘minlash bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar amalga oshiradi;

– o‘z oldida turgan vazifalarini bajarish maqsadida zamonaviy o‘quv va moddiy texnik bazani yaratadi, o‘quv, ilmiy tadqiqot bo‘linmalarini, kafedralarni o‘qitishning zamonaviy texnik vositalari, axborot kommunikatsiya tizimlari va dasturiy majmualar bilan ta‘minlaydi;

– O‘zbekiston Respublikasining ilmiy va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qodir mutaxassislarni tayyorlashda yuksak iste‘dod sohiblariga bilimning tegishli sohalari va fanning aniq yo‘nalishlari bo‘yicha o‘z qobiliyatlarini namoyon etish hamda rivojlantirish, o‘zlaridagi noyob iste‘dodni ro‘yobga chiqarish uchun imkoniyatlar yaratadi;

– talabalarni jamiyatning to‘laqonli a‘zosi, vatanparvar, vijdonan va halol mehnat qiluvchi, o‘z kasbining yetuk mutaxassisini bo‘lib yetishishi uchun kompleks chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

– talabalarning bo‘s sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishlariga ko‘maklashish, ularda milliy g‘urur, vatanparvarlik va fidoyilik tuyg‘ularini shakllantirish choralarini ko‘radi;

– ma‘naviy, madaniy, milliy qadriyatlarni keng targ‘ib qilish, kitobxonlikni rivojlantirish, talabalarni milliy va jahon adabiyoti durdonalariga qiziqishini oshirish hamda dunyoqarshini shakllantirishga yo‘naltirilgan tadbirlarni amalga oshiradi;

– universitet xalqaro reytingi va raqobatbardoshligini oshirish maqsadida chet el fuqarolari uchun ta‘lim olish imkoniyatini kengaytiradi;

Axborot-resurs markazini huquqiy, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy mazmundagi bosma va kitob mahsulotlari hamda o‘quv, ilmiy va boshqa adabiyotlar, jumladan, xorijiy adabiyotlar fondi, o‘qitishning texnik vositalari, shuningdek, global axborot-huquqiy va ta‘lim resurslarini muntazam yangilab borishini ta’minlaydi;

### **III. Universitetning talabalari, tinglovchilari va izlanuvchilari**

#### **a) Talabalar:**

**12.** Universitetga talabalarni qabul qilish O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha Davlat komissiyasi tomonidan kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy(ijodiy) imtihon, yozma imtihon) natijalariga ko‘ra to‘plagan ballarining reyting tizimi bo‘yicha amalga oshiriladi.

Universitetga qabul barcha uchun (grant, to‘lov – kontrakt bo‘yicha) teng huquqlilik yagona qabul qoidalari va yagona tanlov asosida amalga oshirilib test sinovlari va kasbiy (ijodiy) imtihonlardan eng yuqori to‘plagan abituriyentlarning test ballari ketma ketligi asosida belgilangan to‘lov – kontrakt kvotalari doirasida qabul qilinish huquqiga egadirlar. Qonunchilikka muvofiq test sinovlarisiz muayyan imtiyoz asosida o‘qishga qabul qilish o‘rnatalgan tartibda amalga oshiriliadi.

Xorijiy fuqarolarni o‘qishga qabul qilish amaldagi qonunchilikka binoan amalga oshiriladi.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-sentabrdagi 606-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim muassasalarida ikkinchi va undan keyingi ta‘limni olish tartibi to‘g‘risidagi Nizomga muvofiq oliy ma‘lumotga ega bo‘lgan shaxslar universitetda ikkinchi va undan keyingi oliy ma‘lumot olish uchun to‘lov- kontrakt (shartnomalar) asosida o‘qishga qabul qilinishi mumkin.

Ikkinci va undan keyingi oliy ma‘lumot olish uchun abituriyentlar qabulini universitet qabul komissiyasi amalga oshiradi.

Qo‘shma ta‘lim dasturlari asosida kirish sinovlarini muvvafiqayatli topshirgan hamda to‘lov kontrakt kvotalari doirasida to‘lov kontrakt shartlarini bajargan abituriyentlar o‘qishga qabul qilinish huquqiga egadirlar.

Universitet rektorining buyrug'i o'qishga qabul qilingan shaxs universitetning talabasi hisoblanadi. Talabaga talabalik guvohnomasi hamda reyting daftarchasi bepul beriladi.

### **13.Talabalar quyidagi huquqlarga ega:**

- fan, texnika, zamonaviy texnologiyalar taraqiyoti va yutuqlariga mos bilim olish;
- universitet axborot-resurs markazida mavjud bo'lgan kitoblar, davriy nashrlar, elektron ta'lim vositalarida belgilangan tartibda bepul foydalanish;
- bepul maslahatlar va tavsiyalar olish;
- auditoriyalar, ta'lim jarayoniga oid vositalardan o'rnatilgan tartibda bepul foydalanish;
- ta'lim jarayoni samaradorligi va ta'lim sifatini oshirish yuzsidan o'z taklif-mulohazalarini, tanqidiy fikrlarni belgilangan tartibda universitet, fakultet va kafedra rahbariyatiga bildirishga va ularni ko'rib chiqilishini talab qilish;
- universitet va fakultet miqyosida o'tkaziladigan ommaviy tadbirlarda ishtirok etish;
- ilmiy tadqiqot ishlarining barcha turlarida, ilmiy konferensiyalar, simpoziumlarida ishtirok etish, ularning natijalarini nashr etish va bu haqda axborotlar berish;
- universitetda qonuniy ravishda faoliyat yuritayotgan jamoat birlashmalariga a'zo bo'lish va ularda qatnashish;
- o'qishdan tashqari vaqtarda ma'naviy ma'rifiy, obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish, va boshqa qonunchilikka zid bo'Imagan jamoat ishlarida ishtirok etish;
- o'qishdan bo'sh vaqtarda universitetning o'zida, shuningdek, boshqa joylarda mehnat qonunchiligidagi muvofiq ishslash;
- yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalarida akademik almashinuvda ishtirok etish.

Talaba sifatli va yuqori saviyada bilim olishi, tanlangan ixtisosligi bo'yicha yuqori malakali muataxassis bo'lib yetishish uchun zarur bo'lgan qonunchilik hujjalariiga zid bo'Imagan boshqa huquqlardan foydalanish mumkin.

Talaba o'z huquqlarini suiste'mol qilmasligi bu huquqlardan o'zga shaxlar manfaatiga zid maqsadlarda foydalanmasligi shart.

### **14. Talabalarining majburiyatları quyidagilar:**

- o'quv reja va dasturlar talabalarini belgilangan muddatlarda bajarish hamda bilimlarni egallash;
- mazkur Ustav, Universitet ichki tartib qoidalari, Odob-axloq kodeksi, talabalar turar joyi qoidalari va korrupsiya qarshi kurashish dasturiga rioya etish;
- universitet binolari va uning boshqa mol- mulkini asrab – avaylash, to'lov-kontrakt, bo'yicha majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish;
- vatanga va xalqiga halol xizmat qilishga tayyor, yuqori bilimli mutaxassis bo'lib yetishish uchun puxta bilim olish, o'z kasbiy salohiyatini rivojlantirish;

- ta’lim olish jarayonida jamiyatning axloqiy tamoyillariga, ma’naviy qadriyatlarga, qonun talablariga, o‘zaro munosabatlariga yuksak talablariga javob beruvchi qoidalarga qat’iy amal qilish;
- tanlagan ixtisosligi bo‘yicha chuqur nazariy bilim olish va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish;
- o‘quv jarayoni talablariga bo‘ysunishi, o‘quv mashg‘ulotlarini uzrli sababsiz qoldirmaslik, darsga kech qolib kelmaslik, dars mashg‘ulotlari yakunlanmasdan avval ketib qolish;
- ta’lim jarayoni bilan bog‘liq vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli bajarish, o‘qutuvchilarning fanni o‘zlashtirish bilan bog‘liq topshiriqlarni o‘z vaqtida va sifatli bajarish, mashg‘ulotlarga zarur o‘quv qurollari bilan kelish;
- tegishli kafedra va fakultet bilan mustahkam aloqada bo‘lish, fakultet rahbariyatining qonuniy topshiriqlarini o‘z vaqtida bajarish;
- bilimlarni egallahda tashabbus va g‘ayrat ko‘rsatish, loqaydlikka yo‘l qo‘ymaslik;
  - barcha bilan xushmuomalada bo‘lish;
  - universitet mol-mulkiga ehtiyyotkor va tejamkor munosabatda bo‘lish, ularga qasddan yoki ehtiyyotsizlikdan ziyon yetkazmaslik, ziyon yetkazilgan taqdirda moddiy zarar o‘rnini o‘rnatilgan tartibda qoplash, moddiy ashyolarni auditoriyadan yoki binodan tashqariga ruxsatsiz olib chiqmaslik;
  - bino ichida, yo‘laklarda, auditoriyada sanitariya qoidalariga rioya qilish, ifloslantirmasligi, alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi va iste’mol qilinishiga yo‘l qo‘ymaslik;
  - kiyinish madaniyatiga rioya qilish, xususan tashqi ko‘rinishi va yomon xulq-atvori bilan boshqalardan ajralib turmasligi, axloq-odob normalariga so‘zsiz bo‘ysunish;
  - o‘quv mashg‘ulotlariga kelmagan holatda (shu jumladan, kasalligi tufayli) uch kundan kechikmasdan bevosita o‘zi yoxud biriktirilgan tyutori orqali dekanatni tegishli ravishda, xususan yozma tarzda xabardor qilish, qatnashmaslik sabablarini ko‘rsatish;
  - xorijiy tashkilotlar grantlarida qatnashgan taqdirda bu haqida fakultet dekanini xabardor qilish, grant bilan bog‘liq holda chet elga jo‘nab ketishdan avval o‘rnatilgan tartibda ruxsat olish;
  - o‘z ilmiy, ma’naviy-axloqiy, g‘oyaviy-siyosiy saviyasini muntazam oshirib borish, mamlakatlarimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalardagi va yangiliklardan xabardor bo‘lish;
  - o‘quv intizomiga, universitet kengash qarorlari, rektor buyruqlari hamda ta’lim tizimiga doir normativ-huquqiy hujjatlarda qo‘yilgan maqsad va vazifalarga, shuningdek, o‘zining majburiyatlariga rioya etish.

Talabalarga qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

#### **Universitet hududida talabalarga quyidagilar taqiqlanadi:**

Alkogol va tamaki mahsulotlarini tarqatish va iste’mol qilish;

– milliy, irqiy, diniy adovatni targ‘ib qiluvchi har qanday shakldagi materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish va targ‘ib qilish;

– universitet binolari va hududidagi moddiy-texnik, boshqa mol-mulkka zarar yetkazish;

o‘qish vaqtida universitet ma’muriyati ruxsatisiz chet el davlatlariga borish.

**15.** O‘qish davrida o‘quv va ilmiy tadqiqot faoliyatida yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan talabalar universitetning budgetdan tashqari mablag‘lari, shuningdek, xalqaro va xorijiy tashkilotlar grantlari hisobiga hamda universitetning xorijiy hamkorlari bilan shartnomalari asosida yetakchi xorijiy ta’lim muassasalariga talabalarning akademik almashinushi doirasida o‘qishga yuborilishi mumkin.

Talabalarning akademik almashinuvini ta’minlash bo‘yicha yetakchi xorijiy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni mustahkamlash maqsadida universitetda xorijiy mamlakatlarning talabalarini ham o‘z o‘qishini davom ettirishi mumkin.

**16.** Davlat granti va to‘lov-kontrakti asosida o‘qitishning ishlab chiqarishdan ajralgan shaklda ta’lim olayotgan talabalar Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartib va miqdorda stipendiya bilan ta’minlanadilar (xorijiy talabalar bundan mustasno).

Talabalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalarini va universitetning maxsus stipendiyalarini olish huquqiga egadirlar.

**17.** Harbiy xizmatni o‘tash, salomatlikni tiklash, homiladorlik va tug‘ish, shuningdek bolalarni parvarish qilish, oilasining betob a’zosini (otasi, onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar, turmush o‘rtog‘i, farzandi) parvarish qilish uchun akademik ta’til berilishi mumkin. Ushbu ta’tilni berish tartib qoidalari Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi 344-sonli qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalari talabalariga akademik ta’til berish to‘g‘risidagi Nizomda belgilangan

**18.** O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjalariiga muvofiq kunduzgi o‘quv shaklida ta’lim olayotgan talabalariga universitetda o‘qiyotgan vaqt davomida harbiy xizmatga chaqirish vaqtini kechiktirish imkonini beriladi.

**19.** Universitetning talabalar turar joyi sig‘imidan kelib chiqqan holda muhtoj talabalar universitet talabalar turar joylaridan sanitariya me’yorlari va qoidalariiga javob beradigan joy bilan ta’minlanadi.

Talabalar turar joyi uchun to‘lov talabalar turar joylarida kommunal-maishiy xizmatlar uchun to‘lovlarni inobatga olib, universitet kengashi tomonidan belgilanadi.

Turar joyga muhtoj talabalar mavjud bo‘lgan holda, universitetning talabalar turar joylari maydonidan boshqa maqsadlarda foydalanish (ijaraga berish, boshqa kelishuvlar) ga ruxsat etilmaydi.

**20.** Universitetdan chetlashtirilgan talaba Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan talablar asosida o‘qishni ko‘chirish, qayta tiklash va o‘qishdan chetlashtirish tartibi qoidalari asosida qayta o‘qishga tiklanish huquqiga ega.

Universitetning talabalari belgilangan tartib va qoidalari asosida boshqa oliy ta’lim muassasalariga o‘qishlarini ko‘chirish (o‘qishga qayta tiklanish) huquqiga ega.

O‘zbekiston Respublikasi hududida ta’lim faoliyatini olib borish uchun litsenziyaga ega bo‘lman nodavlat oliy ta’lim muassasalari va boshqa mamlakatlar oliy ta’lim muassasalarining filiallari (markazlar, bo‘limlar, o‘quv maslahat punktlari va boshqalar)dan talabalarni universitetga o‘qishni ko‘chirish (o‘qishni tiklash) taqiqланади.

Talabalar o‘qishni bir oliy ta’lim muassasasidan boshqasiga ko‘chirish, qayta tiklash va o‘qishdan chetlashtirish tartibi va qoidalari Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan (bunda chet el fuqarolarining o‘qishni xorijiy oliy ta’lim muassasalaridan universitetga ko‘chirish mustasno).

**21.** O‘zbekiston Respublikasi hukumati qarorlarida nazarda tutilgan hollardan tashqari, talabalarni o‘qish vaqtin hisobidan ta’lim jarayoni bilan bog‘liq bo‘lman ishlarga jalg etish man etiladi.

**22.** Talaba o‘ziga yuklatilgan majburiyatlarni buzgan taqdirda unga nisbatan hayfsan va talabalar safidan chetlatish intizomiy jazo choralar qo‘llaniladi.

**23.** Talaba universitetdan quyidagi hollarda chetlashtirilishi mumkin:

- a) o‘z xohishiga binoan;
- b) o‘qishning boshqa ta’lim muassasasiga ko‘chirilishi munosabati bilan;
- v) o‘quv intizomini va universitetining ichki tartib-qoidalari hamda odobaxloq qoidalari buzganligi uchun;
- g) bir semestr davomida darslarni 74 soatdan ortiq qoldirganligi sababli;
- d) o‘qish uchun belgilangan to‘lov o‘z vaqtida amalga oshirilmaganligi sababli (to‘lov-kontrakt bo‘yicha tahsil olayotganlar uchun);
- e) talaba sud tomonidan ozodlikdan mahrum etilganligi munosabati bilan;
- j) sud qaroriga ko‘ra kirish imtihonlarida belgilangan tartibni buzganligi aniqlanganda (ushbu holatda talabalar safidan chetlashtirilganlar talabalar safiga qayta tiklanmaydi);
- z) vafot etganligi sababli.

**24.** Belgilangan muddatlarda fanlarni o‘zlashtira olmagan (akademik qarzdor bo‘lgan) talaba universitet rektori buyrug‘i bilan kursdan qoldiriladi. Akademik qarzdorligi tufayli kursdan qoldirilgan talaba to‘lov kontrakt asosida o‘qishni quyi kursdagi o‘quv semestri boshidan boshlashi mumkin.

Universitet kredit-modul tizimida o‘qiyotgan talabalarga nisbatan Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-sun qarori bilan tasdiqlangan Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risidagi Nizomining 8-bobi qoidalari qo‘llaniladi.

**25.** Universitet ma’muriyati tashabbusi bilan ushbu Ustavning 23-band“d” kichik bandiga ko‘ra talabalarni o‘qishdan chetlashtirish talabalar kasaba uyushmasining yozma roziligini inobatga olgan holda (kasaba uyushmasi a’zosi bo‘lgan talabalar uchun) amalga oshiriladi. Shuningdek, ushbu Ustavning 23-band“v” kichik bandiga ko‘ra chetlashtirilayotgan holda, universitetning Yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti bilan kelishilishi mumkin.

**26.** Intizomiy jazoga tortilayotgan talaba o'ziga qo'llanilgan jazo chorasingning qonuniyligi va adolatliligi yuzasidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat bilan universitet rektoriga, Oliy ta'limga, fan va innovatsiyalar vazirligiga yoki boshqa vakolatli tashkilotlarga murojaat etishi mumkin.

Talabaga nisbatan qo'llanilgan intizomiy jazo yuzasidan ma'lumot uning shaxsiy yig'ma jildida saqlanadi.

Talaba universitetdan chetlashtirilganda uning shaxsiy hujjatlari, belgilangan shaklda akademik ma'lumotnomma topshiriladi va ularning nusxasi shaxsiy yig'ma jilddaa saqlanadi.

Intizomiy jazo choralarini talabalarning kasallik yoki ta'tilda bo'lgan vaqtin hisobga olinmagan holda xatti-harakat aniqlangandan so'ng bir oydan va xatti-harakat sodir etilgandan so'ng olti oy kechiktirilmay qo'llaniladi. Talabalar kasallik paytida, akademik ta'til yoki homiladorlik va tug'ish holati bilan bilan bog'liq bo'lgan ta'til paytlarida talabalarga intizomiy jazo choralarini ko'rish taqiqlanadi.

Talaba kasal bo'lganligi o'zi yoki uning ota-onasi tomonidan yozma ariza bilan bevosita dekanatga, uch kundan kechiktirilmasdan ma'lum qiliniladi va tibbiy ma'lumotnomaning aslini taqdim etadi.

**b) Tinglovchilar:**

**27.** Universitet huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazida o'qiyotgan shaxslar tinglovchi hisoblanadi.

Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tartibi, tinglovchilarni o'qitish shartlari va huquqlari qonun hujjatlariga muvofiq tegishli normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi.

**v) Tayanch doktorant, doktorant va mustaqil izlanuvchilar:**

**28.** Universitetda O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan, ishlab chiqarishdan ajralgan holda mutaxassislikni chuqur o'rganish va doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilish maqsadida ilmiy izlanishlar olib borish bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) va fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajalari izlanuvchilari uchun tashkil etilgan oliy ta'limdan keyingi ta'limga o'qiyotgan fuqaro tayanch doktorant va doktorant hisoblanadi.

Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganish va ular tomonidan ilmiy izlanishlar bo'yicha fan doktori (Doctor of Philosophy) va fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajalari izlanuvchilari uchun tashkil etilgan oliy ta'limdan keyingi ta'limga o'qiyotgan fuqaro mustaqil izlanuvchi hisoblanadi.

Tayanch doktorant, doktorant va mustaqil izlanuvchilarni o'qitish shakllari va muddatlari, ularni qabul qilish hamda faoliyatini tashkil etish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

#### **IV. O'quv-tarbiyaviy va ilmiy-uslubiy ishlari**

**29.** Universitet mutaxassisligi bo'yicha quyidagi ta'lim turlari asosida o'qitishni amalga oshiradi:

oliy ta'lim;

oliy ta'limdan keyingi ta'lim;

kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

universitet oliy ta'limining bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlashni ta'minlaydi.

universitetda, umumiy o'rta (o'n bir yillik ta'lim), o'rta maxsus (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik o'rta va ikki yillik boshlang'ich proffessional ta'lim), olgan shaxslar, shuningdek, "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ – 637-sod Qonun kuchga kirgunga qadar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (to'qqiz yillik umumiy o'rta va uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi) olgan shaxslar oliy ma'lumot oladi.

Universitet ta'limning asosiy ta'lim dasturlarini ikki bosqichda amalga oshiradi: bakalavriat va magistratura.

Bakalavriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim malaka va ko'nikmalar beradigan, o'qish davomiyligi kamida uch yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir.

Bakalavriat dasturini tugatgan bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi yakunlari bo'yicha ta'lim yo'nalishi bo'yicha "bakalavr" darajasi beriladi hamda davlat namunasida diplom topshiriladi.

Magistratura tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik bo'yicha o'qish davomiyligi kamida bir yil bo'lgan oliy ta'limdir.

Magistratura mutaxassisliklarining va ularga muvofiq bo'lgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining ro'yxati ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan belgilanadi.

Magistr dasturini tugatgan bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi yakunlari bo'yicha tayyorlangan muayyan mutaxassislik bo'yicha "magistr" darajasi beriladi va davlat namunasidagi diplom topshiriladi.

Bakalavr va magistrlik davlat namunasidagi diplom uning egalariga kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish yoki tanlangan ta'lim yo'nalishiga va mutaxasisligiga muvofiq ta'lim muassasalarining navbatdagi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki egallagan mutaxassisligi bo'yicha ishlar huquqini beradi.

Oliy ta'lim turli bosqichda asosiy ta'lim dasturlari bo'yicha dastlabki ta'lim olish, ikkinchi oliy ta'lim olish sifatida qaralmaydi.

**30.** Universitetda ta'lim jarayoni tashkil etish, universitet tomonidan ishlab chiqilgan va kasbiy standartlar asosida tasdiqlangan o'quv rejalar, o'quv dasturlari, malaka talablari universitet rektori (o'quv ishlari bo'yicha prorektor) tomonidan tasdiqlangan yillik kalendar o'quv jadvali hamda mashg'ulotlar jadvali bilan tartibga solinadi.

Ta'lim jarayonini maqsadli yo'naltirish yo'li bilan tashkil etish, ya'ni ta'lim shakllari, uslub va vositalarni tanlash yo'li bilan universitet talabalarga oliy

ta’limning asosiy kasbiy ta’lim dasturlarini o‘zlashtirish uchun zaruriy sharoitlarni yaratib berilishi lozim.

**31.** Universitetda o‘quv mashg‘ulotlarning quyidagi asosiy turlari belgilangan: ma’ruza, konsultatsiya, seminar, amaliy mashg‘ulot, laboratoriya ishi, yakka mashg‘ulot (amaliy ijrochilik bilan bog‘liq bo‘lgan sa’nat yo‘nalishlarida), nazorat ishi, kollokvium, mustaqil ish, amaliyat, kurs loyihasi (kurs ishi), bakalavrlik bitiruv malakaviy ishi hamda magistrlik dissertatsiyasi.

Auditoriya mashg‘ulotlarining barcha turlari uchun 80 daqiqalik (tanaffussiz qo’shma ma’ruza) akademik soat belgilangan. O‘quv mashg‘ulotlari orasidagi tanaffus kamida 10 daqiqa bo‘ladi.

Ta’lim va tarbiya olib boriladigan tillar: o‘zbek, rus va ingliz tillari hisoblanadi.

**32.** Universitetda kadrlar tayyorlash ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holda olib boriladi.

Universitetning asosiy kasbiy ta’limi dasturi doirasida ta’lim olishning barcha shakllari uchun o‘rnatilgan tartibda ishlab chiqilgan va belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan davlat ta’lim standarti qo‘llaniladi.

**33.** Universitetda o‘quv yili ikki semestrga bo‘linadi va uning har birida talabalarning o‘zlashtirish kurslari kesimida 5 baholik (2020/2021-o‘quv yiliga qadar qabul qilingan talabalar uchun) va kredit-modul tizimi (2020/2021-o‘quv yildan boshlab qabul qilingan talabalar uchun) da olib boriladi.

Fanlarni o‘zlashtirilgan talabalarni kursdan kursga o‘tkazish fakultet dekanining tavsiyasiga binoan rektor buyrug‘i bilan amalga oshiriladi. Talabalarni kursdan kursga shartli o‘tkazish mumkin emas.

Universitetning ta’lim dasturlarini o‘zlashtirish, Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimlarini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risidagi Nizom (ro‘yxat raqami 3069, 2018-yil 26-sentabr) va Vazirlar mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son qarori bilan tasdiqlangan oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonida kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risidagi Nizomiga muvofiq tartibga solinadi.

Universitetda bitruvchilarining yakuniy attestatsiyasi O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalari bitruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi tog‘risidagi Nizom (ro‘yxati raqami 1963 , 2009-yil 5-iyun ) qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

**34.** Universitetda ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalari, ta’limni individuallashtirish va mustaqil ta’lim olish vositalarini, modul tizimi hamda masofaviy ta’lim berishni qo‘llash hisobiga mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga yo‘nalaltirilgan ilmiy-uslubiy ishlar amalga oshiriladi.

**35.** Universitetda oliy ta’limdan keyingi ta’lim doirasida Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tasdiqlangan “Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar mutaxassisliklari ro‘yxati”ga muvofiq ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, shuningdek, fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyalar tayyorlash va himoya qilish uchun

universitetga doktorant va mustaqil izlanuvchilarini biriktirish ishlari amalga oshiriladi.

**36.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-avgustdagisi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagogik kadrlarning uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagogik kadrlarning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 797-son qaroriga muvofiq kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo‘yicha kasbiy ta’lim dasturlari amalga oshiriladi.

**37.** Universitet huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malaksini oshirish mintaqaviy markazida attestatsiyadan muvaffaqiyatli o‘tgan qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari tinglovchilariga qa’tiy hisobda turadigan davlat namunasidagi hujjat hisoblanadigan malaka attestati beriladi.

**38.** Universitetda Kengash tomonidan tasdiqlangan mavzular, rejalar bo‘yicha bajaradiganlar ishlarning sifati hamda mehnat xavfsizligi ta’minlangan holda talabalar, magistrantlar, katta ilmiy xodim izlanuvchi va mustaqil izlanuvchilar keng jalg etilib, ilmiy tadqiqot va ijodiy ishlar olib boriladi.

## **V. Universitetning professor-o‘qituvchilarini tarkibi, o‘quv-yordamchi va ma’muriy-xo‘jalik xodimlari (personal)**

**39.** Universitetda professor-o‘qituvchilar tarkibi, ilmiy xodimlar, muhandislik-texnika, ma’muriy-xo‘jalik, ishlab chiqarish, o‘quv-yordamchi va boshqa xizmatchilar lavozimlari mavjud.

Professor-o‘qituvchilar tarkibi kafedra mudiri, professor, dotsent, katta o‘qituvchi, o‘qituvchi (assisent) va o‘qituvchi-stajor lavozimlari kiradi.

**40.** Professor-o‘qituvchilarini tarkibidagi lavozimlariga ishga qabul qilish Buxoro davlat universitetiga pedagog va boshqa xodimlarni ishga qabul qilish, ishdan ozod etish va ichki rotatsiyani amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq tanlov asosida mehnat shartnomasi bo‘yicha amalga oshiriladi.

**41.** Universitetning professor-o‘qituvchilar bilan mehnat shartnomasini tuzish, o‘zgartirish va bekor qilish amaldagi mehnat qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

**42.** Professor-o‘qituvchilar va ilmiy xodimlar quyidagi huquqlarga ega:

- Belgilangan tartibda universitet va fakultet Kengashlarga saylash va saylanish;
- universitetning faoliyatiga taalluqli masalalarini muhokama qilishda ishtirok etish;
- universitetning axborot-resurs markazi, o‘quv va ilmiy bo‘linmalarining xizmatlaridan, shuningdek, ijtimoiy-maishiy, tibbiy va boshqa bo‘limlar xizmatidan jamoa shartnomasiga muvofiq foydalanish ;
- o‘qitishning uslub va vositalarini tanlash, o‘quv va ilmiy jarayonning yuqori sifatini ta’minlovchi ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish;

- universitet rahbariyatining buyruq va farmoyishlarini yuzasidan qonunchilikda belgilangan tartibda murojaat qilish;
- qonunchilikda belgilangan tartibda tanlovlarda qatnashish, lavozimlarni egallash;
- xorijiy hamkasblarning sohaga doir ilmiy va o‘quv-uslubiy adabiyotlari bilan tanishish va ular bilan fikr almashish;
- talabalarning ilmiy tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish;
- ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, fundamental, amaliy va innovatsiya loyihalari, xorijiy ilmiy loyihalar hamda xo‘jalik shartnomalarida ishtirok etish;
- darslik va o‘quv qo‘llanmalar tayyorlash, monografiya va ilmiy maqolalar yozish, ixtiro uchun patent, EHM uchun dasturiy mahsulotlarga guvohnomalar olish;
- tasdiqlangan rejaga muvofiq ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, ilmiy-tadqiqot ishlarning muhokamasida ishtirok etish va ularning natijalarini nashr etish va ularning natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish, ilmiy ishlar natijalarini nashr etishga tavsiyaga berish;
- ta’lim, fan va ishlar chiqarishning samarali integratsiyani ta’minlashda qatnashish;
- xorijiy yetakchi olimlar, ilmiy markazlar va ta’lim muassasalari bilan xalqaro aloqalarni rivojlantirishda ishtirok etish;
- O‘zbekiston Respublikasi ta’lim sohasiga oid qonunchilikda belgilangan boshqa huquqlardan foydalanish.

**43. Professor-o‘qituvchilar va ilmiy xodimlarning majburiyatları quyidagilardan iborat:**

- ta’lim to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari, mehnat va texnologiya intizomi, universitet Ustavi, ichki mehnat-tartib qoidalari, odob-axloq kodeksiga va korrupsiyaga qarshi kurashish dasturiga, Korrupsiyaga qarshi kurash va komplaens nazorat tizimini boshqarish bo‘limi nizomiga qat’iy rioya qilish;
- o‘zining xizmat vazifasini vijdonan bajarish va o‘qituvchilik sha’niga dog‘ tushirmaslik;
- ish jarayonida muloqat qiladigan universitet xodimlari, talabalari va boshqa shaxslar bilan xushmuomalada bo‘lish;
- ish beruvchining qonuniy buyruq va farmoyishlarini bajarish har yili tasdiqlangan shaxsiy reja asosida o‘quv-uslubiy, ilmiy va ma’naviy-ma’rifiy ishlarni o‘z vaqtida va sifatli bajarish, xususan:
- o‘quv yuklamalari hajmini, o‘quv-uslubiy, ilmiy, o‘quv-tashkiliy ishlarni tasdiqlangan shaxsiy reja asosida bajarish va ma’naviy – ma’rifiy ishlarda ishtirok etish; ilmiy-tadqiqot natijalari bo‘yicha darslik, o‘quv qo‘llanma tayyorlash, o‘quv adabiyot, ilmiy maqolalar, monografiyalar yozish, ixtiro uchun patent, EHM uchun dasturiy mahsulotlarga guvohnomalar olish;
- ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta’minlashda qatnashish, talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish;

- tarbiyaviy ishlarni olib borish, talabalar bilan ma’naviy- ma’rifiy ishlarda bevosita ishtirok etish, shu jumladan darsdan tashqari vaqtarda o’tkaziladigan tadbirlarda qatnashish;
- universitet kengashi tomonidan tasdiqlangan kafedrada bajariladigan ilmiy mavzular doirasidagi tadqiqotlarda ishtirok etish;
- o’z malakasini uch yilda bir marta oshirish;
- mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyaga doir qoidalarga rioya qilish;
- universitetning mol-mulkini avvaylash, undan oqilona foydalanish;
- ish beruvchiga bevista o‘zining aybi bilan yetkazilgan haqiqiy moddiy zararni qoplash;
- jamoatchilik ishlarida qatnashish pedagogik va ilmiy jarayonning samaradorligini ta’minlash;
- zamonaviy globallashuv va demokratiya sharoitida ta’lim oluvchilarining tanlagan yo‘nalishini (mutaxassisligi bo‘yicha yuksak kasbiy tayyorgarligini, mehnatga bo‘lgan qobilyatini shakllantirish;
- chet tili va axborot texnologiyalaridan savodxonligini oshirib borish asosida kamida bir yoki ikkita tilni bilish;
- ta’lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik, ijodiy qobilyatni shakllantirish;
- “ustoz-shogird” tizimida ishtirok etib, o‘ziga biriktirilgan shogirdlar bilan ilmiy, ma’naviy- ma’rifiy, tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish;
- o‘zining odobi, madaniyati, ma’naviy saviyasi bilan o‘rnak bo‘lish;
- kiyinish madaniyatiga rioya etish;
- respublikada amalga oshirilayotgan islohotlar va jahonda ro‘y berayotgan yangiliklardan xabardor bo‘lish;
- universitet, fakultet, kafedra tomonidan tashkil etiladigan madaniy, ma’naviy – ma’rifiy tadbirlarda ishtirok etish;
- o‘zi o‘qitadigan fan dasturini muntazam fan va texnika yutuqlari asosida boyitib borish;
- darslarni yuqori saviyada o‘tish;
- fan yo‘nalishiga tegishli yangi manbalarni topish va ular bilan talabalarni tanishtirib borish;
- har o‘quv yili boshlangunga qadar o‘zi o‘qitadigan fan(lar)ning ishchi o‘quv dasturi, kalendar rejasи va reyting nazoratlari jadvalini ishlab chiqish va kafedra majlisida tasdiqlatish;
- reyting taqdirlarini o‘z vaqtida o‘tkazish;
- talabalar bilimini xolisona baholash;
- yangi pedagogika texnologiyalarni dars jarayonida qo‘llash;
- ilmiy salohiyat va pedagogik mahoratni oshirish;
- talabalar ilmiy – tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish;
- o‘zining mutaxassisligi bo‘yicha ishlab chiqarish korxonasi va muassasalarda mavjud muammolar haqida ma’lumot va tasavvurlarga ega bo‘lishi

hamda ishlab chiqarish jarayonida mavjud muammolarning yechimiga oid tadqiqot mavzusiga ega bo‘lish;

– olib borayotgan tadqiqot mavzusi asosida o‘z yoki hammualliflikda ishlanma va texnologiyalarga ega bo‘lishi;

– mataxassisligi bo‘yicha tayanch oliy ta’lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarida tegishli muddatlarda malaka oshirib borish yoki stajirovkadan o‘tish;

– oliy ta’lim tizimizda amalga oshirilayotgan islohotlarda faol qatnashish;

**44.** Universitet professor-o‘qituvchilar tarkibini uch yilda kamida bir marotaba malakasini oshirish kafolatini ta’minlaydi.

**45.** Universitetning ma’muriy-xo‘jalik, muhandislik-texnika, o‘quv-yordamchi va boshqa xodimlarning huquq va majburyatlari universitetning Ichki tartib qoidalari, Odob-axloq kodeksi, Korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi, Korrupsiyaga qarshi kurash va komplaens nazorat tizimini boshqarish bo‘limi nizomiga va lavozim yo‘riqnomalari bilan belgilanadi.

## **VI. Universitetning tuzilmasi**

**46.** Universitetning tuzilmasiga Oliy ta’lim muassasalari boshqaruv, texnik, xizmat ko‘rsatuvchi va o‘quv-yordamchi xodimlarning namunaviy shtatlarini shakllantirish (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-60 son qarori hamda dalat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish to‘g‘risidagi PQ-61 son) talablariga muvofiq belgilangan tartibda shakllantiriladigan departamentlar, boshqarmalar, bo‘limlar, markazlar fakultetlar, kafedralar, ilmiy va o‘quv laboratoriyalari, muzeylar va hokazolar kiradi.

**47.** Universitet fakultetlarini rektor tomonidan tayinlanadigan dekan boshqaradi. Dekan lavozimida ishlovchi shaxs mustaqil shtat lavozimida ishlovchi shaxs hisiblanadi va uning o‘rindoshlik tartibida egallahsga ruxsat etilmaydi.

Fakultet dekani o‘z faoliyatida mazkur Ustavga, “Oliy ta’lim muassasaning fakultet to‘g‘risidagi Nizom”ga amal qiladi.

“Oliy ta’lim muassasaning fakultet tog‘risidagi Nizom”ga muvofiq fakultetda Kengash tashkil etishi mumkin.

Kengashning tarkibi, vakolatlari, shakllantirish va faoliyatining tartibi “Oliy ta’lim muassasasi fakultetining Kengash to‘g‘risida”gi Nizom bilan belgilanadi.

Kafedra faoliyatiga Buxoro davlat universitetiga pedagog va boshqa xodimlarni ishga qabul qilish, ishdan ozod etish va ichki rotatsiyani amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq saylanadigan mudir rahbarlik qiladi.

Kafedra mudirining vakolatlari va kafedra faoliyatining tartibi “ Oliy ta’lim muassasaning kafedrasi to‘g‘risidagi Nizom” bilan belgilanadi.

**48.** Universitet huzurida yuridik shaxs hisoblangan akademik litsey, pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazi faoliyat yuritadi.

Universitet tasarrufidagi akademik litsey mustaqil yuridik shaxs hisoblanib, o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq hamda o‘z ustavi asosida amalga oshiradi.

**49.** Universitet huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 26-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yana takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 278-son qaroriga muvofiq faoliyat ko‘rsatadi.

## **VII.Universitetni boshqarish**

**50.** Universitetni boshqarish O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi hamda ushbu Ustavga muvofiq yakka rahbarlik va universitetning Kengashi orqali jamoatchilik boshqaruvini uyg‘unlashtirish tamoyili asosida amalga oshiriladi.

**51.** Moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta’lim muassasasi rektori va prorektorlari Kuzatuv kengashi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi. Universitetni bevosita boshqarish universitet rektori tomonidan amalga oshiriladi.

Rektor universitet faoliyatiga, shuningdek, Ish reglamenti, Ichki tartib qoidalar, Odob-axloq kodeksi, Oliy ta’lim to‘g‘risidagi Nizom hamda mazkur Ustavda belgilangan majburiyatlar uchun to‘la mas’uldir.

Rektor O‘zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga ko‘ra universitet nomidan ishonchnomasiz ish olib boradi, barcha idoralar, muassasalar, korxonalarda uning vakili sifatida qatnashadi, Universitetning mol-mulkiga mas’ullik qiladi, shartnomalar tuzadi, ishonchnomalar beradi bank muassasalarida universitetning hisob raqamlarini ochadi, moliyaviy mablag‘lardan o‘rnatilgan tartibda foydalanish bo‘yicha farmoyishlar beradi.

**52.** Universitet rektori vakolatlari doirasida:

- universitetning professor-o‘qituvchilari, barcha xodimlari, talabalari va boshqa ta’lim olayotganlar uchun majburiy bo‘lgan buyruqlar va farmoyishlar chiqaradi va topshiriqlar beradi;

- fakultet dekanlari, bo‘lim va boshqarma boshliqlari, bosh hisobchini o‘z nomenkulturasidagi boshqa xodimlarni lavozimiga tayinlaydi va lavozimidan ozod qiladi va ularning muayyan vazifalari, mas’uliyatini belgilaydi;

- akademik litsey faoliyatidagi ishning tashkil etilishi ustidan o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha prorektorlar kuratorligi-rahbarligi vazifalarini belgilaydi;

- universitet prorektorlari lavozimiga nomzodlarni tavsiya etadi va prorektorlar, dekanlarning muayyan vazifalari, hamda mas’ulyatini belgilaydi;

– universitet xodimlari bilan O‘zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligi va Vazirlar mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda mehnat shartnomalarini tuzadi, o‘zgartiradi va bekor qiladi;

– universitet tarkibiga kirgan olmiy tadqiqot, tajriba-eksperimental hamda boshqa tashkilot va bo‘linmalarning vazifalarini belgilaydi, ular to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlaydi;

– universitet xodimlarning lavozim maoshlariga ustamalar va qo‘sishmchalarni o‘rnatilgan tartibda belgilaydi;

– kasaba uyushma qo‘mitasi yoki universitetning boshqa vakolatli organi bilan kelishgan holda Ichki tartib qoidalar va Odob-axloq kodekslarini tasdiqlaydi;

– universitetda Namunaviy shtat birliklariga muvofiq ajratilgan mablag‘lar hamda ish haqi fondi, tasdiqlangan universitet xodimlarining soni va lavozim maoshlari, ta’rif setkasi doirasida universitet professor-o‘qituvchilari tarkibi va universitetning boshqa xodimlarining shtat birligini tasdiqlaydi hamda lavozim maoshlarini belgilaydi;

– universitet kengashining tavsiyasiga ko‘ra o‘rnatilgan tartibda tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq fakultetlarni, kafedralarni ochish yoki yopish qarorlarini tasdiqlaydi. Universitet kafedrasi to‘g‘risida namunaviy nizom talablaridan kelib chiqqan holda universitet kengashining tavsiyasiga ko‘ra, kafedralar tashkil etiladi yoki tugatiladi;

– O‘zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligi hamda ta’lim jarayonini boshqarish bo‘yicha qonun hujjatlariga muvofiq va vakolatli organlar tomonidan belgilangan boshqa vazifalar ijrosini ta’minlaydi.

– universitet rektori o‘zi ishlayotgan oliy ta’lim muassasasi va undan tashqarida haq to‘lanadigan boshqa rahbarlik lavozimida (ilmiy va ilmiy – metodik rahbarlikdan tashqari ) o‘rindoshlik bo‘yicha ishlashga ruxsat etilmaydi, rektor o‘z vazifalarini o‘rindoshlik bo‘yicha bajarishi mumkin emas.

**53.** oliy ta’lim to‘g‘risidagi Nizomga muvofiq universitet faoliyatining asosiy masalalarini ko‘rish uchun kengash tashkil etiladi.

Kengash tarkibiga rektor, prorektorlar, fakultetlar dekanlari hamda kafedra mudirlari, bo‘lim boshliqlari, universitet xodimlari, kasaba uyushmasi kengash vakillari kiradi. Rektor kengash raisi hisoblanadi. Kengashning boshqa a’zolari umumiy majlisda yashrin ovoz berish yo‘li bilan sayylanadi.

Professor-o‘qituvchilar tarkibidan kengashga saylanadiganlar soni rektor buyrug‘i bilan belgilanadi.

Kengashning vakolati, uni saylash va faoliyat yuritish tartibi kengash raisi tomonidan tasdiqlanadigan “Universitetning Kengashi tog‘risida”gi nizomi bilan belgilanadi.

**54.** Universitetda falsafa doktori (Doctor of Philosophy ) va fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajalarini beruvchi ilmiy kengashlar faoliyati tashkil etilishi mumkin.

**55.** Universitetda tarkibi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan Kuzatuv kengashi tashkil etiladi. Kuzatuv kengashi Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadigan nizom asosida faoliyat olib boradi.

Kuzatuv kengashi o‘z vakolatlarini Universitet kengashiga topshirishga, shuningdek, Universitet kengashiga kiruvchi vakolatlarni o‘z zimmasiga olishga haqli.

**56. Kuzatuv kengashining asosiy vakolatlari quyidagilardan iborat:**

- universitetning uzoq va o‘rta muddatli strategik rivojlantirish dasturini tasdiqlash, xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlar reytingining yuqori o‘rinlaridan joy olish bo‘yicha maqsadli chora-tadbirlarni belgilash hamda uning amalgamoshirilishini nazorat qilib borish;
- universitetning o‘rta muddat uchun shakllantiriladigan biznes-rejasi hamda daromadlar va xarajatlar parametrlarini tasdiqlash, ularning ijrosini muhokama qilish;
- ta’lim yo‘nalishlari, mutaxassisliklar hamda ixtisosliklar bo‘yicha to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga qabul parametrlarini belgilash to‘g‘risida qaror qabul qilish;
- universitet oldiga qo‘yilgan vazifalar ijrosi, maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish holati bo‘yicha rektor va prorektorlar faoliyatini o‘rganish hamda axborotini eshitish;
- universitetning ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatiga moliyaviy nazorat o‘tkazish uchun qo‘sishma topshiriq berish hamda nazorat tadbirlarining natijasi yuzasidan hisobot olish;
- universitetni rivojlantirish va uning moliyaviy faoliyati bilan bog‘liq masalalarni hal etish, shu jumladan, nodavlat notijorat tashkiloti ko‘rinishida maqsadli kapital jamg‘armasini shakllantirish;
- ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan kelib chiqib, Universitet innovatsion va boshqa jamg‘armalar mablag‘larini sarflash tartibi va yo‘nalishlarini belgilash;
- universitet rahbari va xodimlari hamda professor-o‘qituvchilar faoliyatiga baho berish, ular faoliyatining samaradorligini baholash mezonlarini (KPI) tasdiqlash;
- universitet hamda uning huzuridagi ta’lim va ilmiy muassasalarining rahbari va xodimlari, professor-o‘qituvchilar, shuningdek, xorijiy mutaxassislar uchun mehnatga haq to‘lash miqdori va samaradorlik mezonlariga asoslangan rag‘batlantirish tartibini belgilash;
- universitetning budgetdan tashqari rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘laridan foydalanish tartibini, shu jumladan xarajatlarning taqsimlanish ulushini mustaqil belgilash;
- doktoranturada to‘lov-kontrakt asosida o‘qish qiymatini belgilash, budgetdan tashqari mablag‘lar hisobidan grant ajratish orqali doktoranturaga tanlov asosida kvotaga qo‘sishma ravishda qabul qilish.
- magistratura bosqichida ta’limning sirtqi, masofaviy va kechki shakllarini joriy etish, ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklar bo‘yicha qo‘sish malakalar, shu jumladan, amaliy malakalar berish tizimini joriy qilish;
- faoliyatining asosiy yo‘nalishi ta’lim, ilm-fan, uning natijalarini joriy etish hamda tijoratlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan, davlat budgeti mablag‘lari hisobidan

moliyalashtirilmaydigan tarkibiy tuzilmalar, tijorat va notijorat tashkilotlarni tashkil etish;

– pedagog va boshqa xodimlarni ishga qabul qilish, ishdan ozod etish va ichki rotatsiyasiga oid tartibni belgilash.

### **VIII. Jamoat tashkilotlari**

**57.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son qaroriga muvofiq universitetda samarali jamoatchilik nazoratini joriy etish maqsadida talabalar, ota-onalar, Yoshlar ittifoqining universitetdagi faollari, kadrlar buyurtmachilar, professor-o‘qituvchilar hamda fuqarolik jamiyatni institutlari vakillaridan iborat tartibda jamoatchilik kengashi tashkil etiladi.

Jamoatchilik kengashining asosiy vazifalari:

- ta’lim sifati, professor-o‘qituvchilarning bilimi va pedagogik mahorati, talablarga yaratilgan shart-sharoitlar ustidan tizimli ravishda monitoring o‘rnatish;
- universitetga professor-o‘qituvchilar tarkibiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlar bo‘yicha tavsiyalar berish;
- talabalarning murojaatlarini ko‘rib chiqish, ularning pedagogik kadrlar haqidagi fikrini to‘liq o‘rganish maqsadida ijtimoiy so‘rovlар o‘tkazish;
- universitetdagi ta’lim jarayonini takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlash va universitetning tegishli kengashi muhokamasiga kiritish.

**58.** Universitetda kasaba uyushmasi va boshqa jamoatchilik tashkilotlari faoliyat ko‘rsatadi.

Professor - o‘qituvchilar va xodimlarning mehnat huquqi va manfaatlari himoya qilish maqsadida kasaba uyushmasi markaziy kengashi hamda ularning universitetda saylangan vakili amaldagi qonunchilik asosida o‘z ish faoliyatini olib boradi.

### **IX. Moliya-xo‘jalik faoliyati va moddiy texnik bazasi**

**59.** Universitetda ushbu ustavda nazarda tutilgan faoliyatni amalga oshirish maqsadida operativ boshqarish huquqi bilan davlat tomonidan binolar, inshootlar, mulkiy majmualar, universitetning pasportga muvofiq asbob-uskunalar shuningdek, iste’mol, ijtimoiy, madaniy va boshqa maqsadlar uchun zarur bo‘lgan mulklar kiritilgan.

Universitet Vazirlar Mahkamsining qarori bilan davlat tasarrufidan chiqariladigan va xususiyashtiriladigan obyektlar qatoriga kiritilgan universitetga ajratilgan yer uchastkalri unga tekin foydalanish huquqi asosida biriktirilgan.

**60.** Quyidagilar universitet faoliyatini moliyalashtirish manbalari hisoblanadi:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgeti mablag‘lari;

O‘zbekiston Respublikasi va chet el fuqarolarining to‘lov-kontrakt asosida o‘qitishdan tushadigan milliy va xorijiy valyuta mablag‘lari;

budgetdan tashqari rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari;

davlat-ilmiy texnikaviy dasturlari doirasida o'tkaziladigan grant tanlovlari natijalri bo'yicha fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar uchun ajratiladigan mablag'lar;

xo'jalik faoliyati va shartnoma asosida xizmatlar ko'rsatishdan tushadigan tushumlar;

xalqaro moliya tashkilotlarning grantlari;

jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari va maqsadli badallar;

Universitet faoliyatida amalga oshirilgan ilmiy, o'quv va boshqa innovatsion ishlanmalarini tijoratlashtirish, shuningdek, universitet mol-mulkini ijaraga berishdan tushgan mablag'lar;

qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar.

**61.** Universitetning ta'lif faoliyatini moliyaviy ta'minlash davlat grantlari asosida mutaxassislar tayyorlash uchun ajratilgan budjet mablag'lar, davlat tomonidan belgilangan normativlardan kelib chiqqan holda qayta tayyorlash va xodimlarning malaksini oshirish hisobiga ajratilgan mablag'lar, shuningdek, budjetdan tashqari mablag'lar, jumladan, talabalar va tinglovchilarni o'qitish uchun belgilangan tartibda olingan to'lov-shartnoma asosidagi mablag'lar va tadbirkorlik tushumlari hisobidan amalga oshiriladi.

**62.** Universitet asosiy faoliyatiga zarar yetmaydigan tartibda ta'lif hamda boshqa sohalarda pullik ta'lif va servis xizmatlarini amalga oshirish mumkin. Universitet shug'ullanadigan tadbirkorlik faoliyati uning Ustavida belgilangan vazifalarga mos kelishi kerak.

Universitet o'z mulki bilan xo'jalik yurituvchi subyektlar, jamiyatlar va shirkatlarning ustav jamg'armasida qatnashish, pullik ta'lif xizmatlari, konsultatsiyalar va boshqa xizmatlar uchun narxlar belgilash, soliq va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa majburiy to'lovlardan so'ng qolgan daromadni mustaqil tasarruf etish huquqiga ega.

Universitet pullik ta'lif xizmatlari ko'rsatishni budjetdan ajratiladigan mablag'lar hisobidagi ta'lif faoliyati doirasida va uning o'rniga amalga oshirish mumkin emas.

Universitet O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga hamda mazkur Ustavga zid bo'lmagan shartnomalar tuzish, majburiyatlar va boshqa shartlarni belgilash bo'yicha masalalarni mustaqil hal qiladi.

**63.** Muassasa o'z tarkibiga kiradigan tashkilotlarga tegishli ko'chmas mulknini bir tashkilotdan boshqa biriga operativ boshqaruv huquqi asosida o'tkazishiga Davaktiv agentligi bilan kelishilgan holda ruxsat beriladi.

Muassasa ko'chmas mulk obekti va bo'sh yer uchastkalari negizida amalga oshiriladigan davlat-xususiy sheriklik loyihalari to'g'risidagi ma'lumotlarni davlat sherigi tomonidan tegishli bitim tuzilganidan so'ng o'n kun muddatda "Davlat mulki" axborot tizimiga kiritadi.

Muassasaning mol-mulki faqat Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan garovga qo'yilishi mumkin.

**64.** Universitetda lavozim maoshlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 24-iyuldagи “Respublika oliv ta’lim muassasalari xodimlari mehnatga haq to‘lash tizimini takomillashtirish va uni moddiy rag‘batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-926-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 1-avgustdagи “Respublika oliv ta’lim muassasalari xodimlari mehnatiga haq to‘lash tizimini takomillashtirish va uni moddiy rag‘batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 164-son qarori va Mehnatga haq to‘lashning yagona ta’rif setkasiga muvofiq belgilanadi. Universitet xodimiga lavozim maoshi (stavka) o‘z funksional vazifalarni hamda mehnat shartnomasida nazarda tutilgan ishlarni bajarganligi uchun to‘lanadi.

Qo‘srimcha maosh, ustama va boshqa moddiy rag‘batlantirish tadbirlarining hajmini va moddiy rag‘batlantirish fondidan foydalanish “Buxoro davlat universiteti professor-o‘qituvchila, talabalar, o‘quv-yordamchi, texnik va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarga moddiy yordam ko‘rsatish, moddiy rag‘batlantirish hamda ustama ish haqi tayinlash uchun maxsus jamg‘arma mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi nizomda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

**65.** Universitetda tashkil etilgan jamoat tashkilotlariga faoliyat ko‘rsatishlari uchun zarur bo‘lgan xonalar ajratiladi.

Universitet qoshidagi tibbiyot xonasiga, shuningdek, o‘rnatalgan tartibda tashkil etilgan umumiy ovqatlanish tuzilmasiga (oshxona, bufet) isitish, yoritish va suv ta’minoti bilan ta’minlangan xonalar ajratiladi.

Universitetning tegishli binolarini ta’mirlash, rekonstruksiya qilish yoki yangilarini qurish, ularning moliyaviy ta’minoti qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

**66.** Universitetning asosiy vositalarini hamda qurilishi tugallanmagan obektlarini belgilangan tartibda sotish yoki buzish quyidagi shartlardan biri mavjud bo‘lganda amalga oshiriladi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining hujjalariiga muvofiq sotiladigan obektlar bundan mustasno:

belgilangan xizmat muddatining tamom bo‘lishi (to‘liq yaroqsiz deb topilishi);

ularning jismoniy eskirishi, avariylar, tabiiy ofatlar, foydalanishning normal sharoitlari buzilishi oqibatida yaroqsiz holga kelishi;

ma’naviy eskirishi;

muassasaning bino qurilishi, kengaytirilishi, rekonstruksiya qilinishi, modernizatsiya qilinishi va qayta tashkil etilishi munosabati bilan bo‘shab qolishi.

## X. Xalqaro hamkorlik.

**67.** Universitet O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son qarori va 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliv ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni hamda mazkur Ustavga muvofiq, xorijiy mamlakatlarning

ta’lim va ilmiy markazlari xalqaro jamg‘armalar va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini o‘rnatish huquqiga ega.

Universitetda chet el fuqarolarini o‘qitish, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, shuningdek, universitet ilmiy-pedagogik xodimlarning xorijiy mamlakatlarda pedagogik va ilmiy-tadqiqot ishlarni amalga oshirish O‘zbekiston Respublikasining vakolatli davlat organlari va xorijiy davlatlarning ta’limini boshqarish bo‘yicha tegishli organlar o‘rtasida tuzilgan shartnomalar, shuningdek Universitetning xorijiy davlatlarning ta’lim va ilmiy markazlari, xalqaro jamg‘armalar va boshqa tashkilotlar bilan qonunchilikka muvofiq belgilangan tartibda tuzilgan shartnomalari (bitim, memorandumlari), chet el fuqarolari va xorijiy yuridik shaxslar bilan bevosita tuzilgan shartnomalari asosida amalga oshiriladi.

**68.** Xalqaro faoliyatni amalga oshirishda universitet quyidagi huquqlarga ega:

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan kelishilgan holda ta’lim soahasidagi xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlarga a’zo bo‘lish;

xorijiy davlatlarning ta’lim va ilmiy markazlari, tashkilotlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik qilish yuzasidan shartnomalar (bitim, memorandumlar) tuzish;

xorijiy oliy ta’lim muassasalari va ilmiy markazlaridan yuqori malakali professor-o‘qituvchilar va olimlarni dars mashg‘ulotlariga, hamkorlikda o‘quv adabiyotlari va ilmiy-tadqiqot ishlarni amalga oshirishga jalg etish;

xorijiy hamkorlik ishtirokida universitet tarkibiy bo‘linmalari (qo‘shma fakultetlar, qo‘shma ta’lim dasturlari, markazlar va boshqa bo‘linmalar)ni qonunchilikda ko‘zda tutilgan tartibda tashkil etish;

universitet talabalarini xorijiy mamlakatlarga stajirovka, amaliyot o‘tash, konferensiya va tanlovlarga yuborishni ta’minalash;

universitet va xorijiy oliy o‘quv yurtlari talabalari, tayanch doktorantlari va doktorantlar, professor o‘qituvchilar va ilmiy xodimlar bilan ikki tomonlama o‘zaro almashinuv dasturlarini tashkil etish;

xorijiy fuqarolarni belgilangan tartibda universitetga o‘qishga qabul qilish va ularning o‘qishlari uchun shart-sharoitlar yaratish

universitetga qonunchilikda belgilangan tartibda xorijiy mamlakatlarning institutlari va tashkilotlari bilan boshqa yo‘nalishlarda ham o‘zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini o‘rnatish huquqiga ega.

**69.** Universitet professor-o‘qituvchilarini va xodimlari hamda talabalarning chet el xizmat safarlari amaldagi qonunchilik hujjatlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining tegishli idoraviy normativ-huquqiy hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlish to‘g‘risida”gi PF-5847- son Farmonining 5-bandiga muvofiq, ta’lim sifatini yaxshilash borasidagi ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish jarayonlarini jadallshtirish maqsadida universitetda rektor va prorektorlarning xorijiy mamlakatlarga xizmat safariga chiqishi

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsilar vazirligini xabardor qilgan holda amalga oshiriladi. Bunda universitet rahbar xodimlari tomonidan xorijiy mamlakatga xizmat safari oldidan asosiy ma’lumotlar, jumladan, mamlakat nomi, tashrif maqsadi va rejasi, safar natijalari yuzasidan esa universitet kengashiga amalga oshirilgan ishlar va xarajatlar to‘g‘risida taqdim etilgan hisobot universitet veb-saytiga joylashtiriladi.

70. Xorijiy safarlarga yuborilgan rahbar xodimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar va talabalar (bakalavr va magistr) bajarish lozim bo‘lgan reja ishlarini bajarmagan va o‘z xatti-harakatlari bilan universitet sha’niga putur yetkazgan hollarda ularga nisbatan qonunchilik asosida tegishli choralar ko‘riladi.

71. Universitet tashqi iqtisodiy faoliyatidan tushgan valyuta, moddiy tushumlar qonunchilikka binoan mazkur Ustavda belgilangan Universitet faoliyatini moddiy ta’minalash uchun ishlatiladi.

## **XI.Yakuniy qoidalar**

72. Universitet O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligidagi belgilangan tartibda quyidagilarga javob beradi:

- ta’lim jarayonida o‘quv reja va jadvallarga muvofiq ta’lim dasturlari hajmini to‘liq bajarmaganligi;
- ta’lim jarayoni vaqtida universitetda ta’lim oluvchilar va xodimlarning hayoti va sog‘lig‘i;
- ta’lim oluvchilar va xodimlarning huquq va erkinliklarining buzilganligi;
- amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa vazifalarni bajarmaganligi.

73. Universitet O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligidagi muvofiq qayta tashkil qilinishi yoki tugatilishi mumkin.

74. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi tomonidan universitetga operativ boshqaruv huquqi asosida tegishli bo‘lgan davlat ko‘chmas mulki obektlarini xatlash va majburiy realizatsiya qilinishi mumkin emas.

75. Ustav O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlanib, o‘rnatalgan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgandan so‘ng kuchga kiradi

Universitet Ustaviga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsilar vazirining buyrug‘i bilan amalga oshiriladi.



## Ma'lumotlarni o'zgartirish haqida ma'lumotnoma

### O'zgartirishdan oldin

Soliq to'lovchisining identifikatsiya raqami (STIR)  
201504275

Nomi  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Tashkiliy-huquqiy shakli  
Davlat muassasasi  
Joylashgan joyi (manzili)  
Buxoro viloyati, Buxoro shahri, M.IQBOL KO'CHASI

### O'zgartirishdan keyin

Soliq to'lovchisining identifikatsiya raqami (STIR)  
201504275

Nomi  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Tashkiliy-huquqiy shakli  
Davlat muassasasi  
Joylashgan joyi (manzili)  
Buxoro viloyati, Buxoro shahri, M.IQBOL KO'CHASI

05.12.2023

2328010

Guvohnoma olingan sana

Ariza raqami

1553023





O'zbekiston Respublikasi  
Adliya vazirligi

## Ma'lumotlarni o'zgartirish haqida ma'lumotnoma

### Oldingi ta'sischilar

Yuridik shaxs

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Soliq to'lovchisining identifikatsiya raqami (STIR): 201122744

Miqdori: 1 so'm

Ulush: 100.00%

Ustav fondi

1 so'm

05.12.2023

2328010

Guvohnoma olingan sana

Ariza raqami

1553023





O'zbekiston Respublikasi  
Adliya vazirligi

## Ma'lumotlarni o'zgartirish haqida ma'lumotnoma

### Yangi ta'sischilar

Yuridik shaxs

"O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI" DM

Soliq to'lovchisining identifikatsiya raqami (STIR): 201122744 Miqdori: 1 so'm Ulush: 100.00%

Ustav fondi

1 so'm

05.12.2023

2328010

Guvohnoma olingan sana

Ariza raqami

1553023

